

Mirzamaxmudov U.A., Mutalliyev N.N.,

Namangan muhandislik-texnologiya institute

“Oliy matematika” kafedrasi assistenti

Namangan, O‘zbekiston

GRONUOLL CHEGARALANISHLI BOSHQARUVLAR

UCHUN TUTISH MASALASI

Annotatsiya. Ushbu ma’ruzada boshqaruvlar Granoull chegaralanishga ega holda ikkinchi tartibli differensial o‘yinlar uchun tutish masalasi o‘rganiladi. Bunda quvlovchi uchun parallel quvish strategiyasi quriladi va uning yordamida tutish masalasi uchun yetarli shartlar keltiriladi.

Kalit soʻzlar: Differensial o‘yin, geometrik chegaralanish, parallel quvish strategiyasi, quvlovchi, qochuvchi, tezlanish, Granoull chegaralanishli.

Мирзамахмудов У.А., Муталлиев Н.Н.,

ассистенты кафедры «Высшая математика»

Наманганский инженерно-технологический институт

Наманган, Узбекистан

ЗАДАЧА СЛЕЖЕНИЯ ДЛЯ УПРАВЛЕНИЙ НА СВЯЗИ ТИПА ГРАНВОЛЛА

Аннотация. В этом отчете исследуется проблема удержания контроля в дифференциальных играх второго порядка с ограничениями Грануля. В этом случае для преследователя строится параллельная стратегия преследования, и с ее помощью задаются достаточные условия для задачи поимки.

Ключевые слова: Дифференциальная игра, геометрическое ограничение, стратегия параллельной погони, преследователь, бегство, ускорение, ограничение Гронуля.

$\mathbf{R}^n$ fazoda $\mathbf{P}$ va $\mathbf{E}$ obyektlar berilgan va ularning harakatlari quyidagi differensial tenglamalarga asoslangan

$$\mathbf{P}: \ddot{x} = u, \dot{x}(0) - kx(0) = 0, \quad |u(t)|^2 \leq \rho^2 + 2l \int_0^t |u(s)|^2 ds, \quad (1)$$

$$\mathbf{E}: \ddot{y} = v, \dot{y}(0) - ky(0) = 0, \quad |v(t)|^2 \leq \sigma^2 + 2l \int_0^t |v(s)|^2 ds, \quad (2)$$

bu yerda x – $\mathbf{P}$ obyektning $\mathbf{R}^n$ fazodagi holati, $x_0 = x(0)$, $x_1 = \dot{x}(0)$ –uning mos ravishda $t=0$ vaqtdagi boshlang‘ich holati va boshlang‘ich tezligi; u – quvlovchining boshqariladigan tezlanishi bo‘lib $u: [0, \infty) \rightarrow \mathbf{R}^n$ va u vaqt bo‘yicha o‘lchanuvchi funksiya sifatida tanlanadi; barcha

$|u(t)|^2 \leq \rho^2 + 2l \int_0^t |u(s)|^2 ds$ shartni qanoatlantiruvchi bunday $u(\cdot)$ o‘lchanuvchi

funksiyalar to‘plamini $\mathbf{G}_p$ bilan belgilaymiz. y – $\mathbf{E}$ obyektning $\mathbf{R}^n$ fazodagi holati, $y_0 = y(0)$, $y_1 = \dot{y}(0)$ – uning mos ravishda barcha

$|v(t)|^2 \leq \sigma^2 + 2l \int_0^t |v(s)|^2 ds$ shartni qanoatlantiruvchi bunday $v(\cdot)$ o‘lchanuvchi

funksiyalar to‘plamini $\mathbf{G}_E$ bilan belgilaymiz.

Та’риф 1. Agar $(x_0, x_1, u(\cdot))$, $u(\cdot) \in \mathbf{G}_p$ uchlik berilgan bo‘lsa, (1) tenglamaning quyidagi yechimiga quvlovchining harakat trayektoriyasi deyiladi

$$x(t) = x_0 + tx_1 + \int_0^t \int_0^s u(\tau) d\tau ds.$$

Ta’rif 2. Agar $(y_0, y_1, v(\cdot)), v(\cdot) \in G_E$ uchlik berilgan bo’lsa (2) tenglamaning quyidagi yechimiga qochuvchining harakat trayektoriyasi deyiladi

$$y(t) = y_0 + ty_1 + \int_0^t \int_0^s v(\tau) d\tau ds.$$

Ta’rif 3. (1)-(2) masala uchun tutish masalasi ([1]-[2]) yechilgan deyiladi, agar qochuvchining ixtiyoriy $v(\cdot) \in G_E$ boshqaruv funksiyasi uchun quvlovchining shunday $u^*(\cdot) \in G_p$ boshqaruv funksiya mavjud bo’lsaki, biror chekli t^* vaqtda quyidagi tenglik bajarilsin

$$x(t^*) = y(t^*). \quad (3)$$

Ta’rif 4. (1) – (2) masala uchun quvlovchining Π -strategiyasi ([3]-[4]) deb quyidagi funksiyaga aytamiz,

$$u(v) = v - \lambda(v) \xi_0, \quad (4)$$

bunda $\xi_0 = \frac{z_0}{|z_0|}$, $\lambda(v) = (v, \xi_0) + \sqrt{(v, \xi_0)^2 + \delta e^{2lt}}$, $\delta = \rho^2 - \sigma^2 \geq 0$, $(v, \xi_0) - v$

va ξ_0 vektorlarning R^n fazodagi skalyar ko’paytmasi.

Teorema. Agar Granoull chegaralanishli ikkinchi tartibli differensial o’yin (1)-(2) uchun quyidagi shart $\rho > \sigma$ o’rinli bo’lsa, u holda Π -strategiya (4) yordamida tutish masalasi $(0, t)$ yechiladi va obyektlar orasidagi yaqinlashish funksiyasi quyidagicha bo’ladi

$$f(l, t, |z_0|, \rho, \sigma, k) = |z_0|(kt + 1) - \frac{\rho - \sigma}{l^2} e^{lt} + \frac{\rho - \sigma}{l^2} + \frac{\rho - \sigma}{l} t$$

Isboti. Faraz qilamiz, agar qochuvchi ixtiyoriy $v(\cdot) \in G_E$ bo’lganda, quvlovchi esa (4) ko’rinishdagi strategiyani tanlasin, u holda (1) va (2) tenglamalarga asosan quyidagi Karateodori tenglamasini topamiz

$$\ddot{z} = -\lambda(v(t))\xi_0, \quad \dot{z}(0) - kz(0) = 0,$$

Bundan boshlang'ich shartlarni berilishi bo'yicha quyidagi yechim aniqlanadi

$$z(t) = z_0(kt+1) - \xi_0 \int_0^t \int_0^s \lambda(v(\tau), \xi_0) d\tau ds$$

yoki

$$|z(t)| = |z_0|(kt+1) - \int_0^t \int_0^s ((v, \xi_0) + \sqrt{(v, \xi_0)^2 + \delta e^{2t}}) d\tau ds.$$

Lemmaga ko'ra quyidagi tengsizliklarni hosil qilamiz

$$|z(t)| \leq |z_0|(kt+1) - \int_0^t \int_0^s e^{l\tau} (\rho - \sigma) d\tau ds \Rightarrow$$

$$|z(t)| \leq |z_0|(kt+1) - \frac{\rho - \sigma}{l^2} e^{lt} + \frac{\rho - \sigma}{l^2} + \frac{\rho - \sigma}{l} t$$

Agar $f(l, t, |z_0|, \rho, \sigma, k) = |z_0|(kt+1) - \frac{\rho - \sigma}{l^2} e^{lt} + \frac{\rho - \sigma}{l^2} + \frac{\rho - \sigma}{l} t$ desak

bu funksiyani nolga aylantiruvchi musbat t^* vaqtni topamiz.

$$\frac{\rho - \sigma}{l^2} e^{lt} = |z_0|(kt+1) + \frac{\rho - \sigma}{l^2} + \frac{\rho - \sigma}{l} t,$$

oxirgi tenglikni soddalashtirish orqali quyidagi tenglikni hosil qilamiz,

$$e^{lt} = t \left(\frac{|z_0|kl^2}{\rho - \sigma} + l \right) + \frac{|z_0|l^2}{\rho - \sigma} + 1$$

bunda $A = \frac{|z_0|kl^2}{\rho - \sigma} + l$, $B = \frac{|z_0|l^2}{\rho - \sigma} + 1$ bo'lib, bu yerda $\rho > \sigma$, $B > 1$. Natijada quyidagi tenglikka ega bo'lamiz


$$e^{lt} = At + B \quad (5)$$

Tutish vaqtini aniqlash uchun (5) tenglamani quyidagi hollarini ko'rib chiqamiz.


1. $A < 0 \Rightarrow k < \frac{\sigma - \rho}{|z_0|l}$ bo'lsin. U holda (5) tenglama yagona $t^* > 0$ musbat yechim mavjud va bu yechim tutish vaqti bo'ladi. (1-chizma)

2. $A = 0 \Rightarrow k = \frac{\sigma - \rho}{|z_0|l}$ bo'lsin. U holda (5) tenglama yechimi
$$t^* = \frac{\ln\left(\frac{|z_0|l^2}{\rho - \sigma} + 1\right)}{l}$$
 bo'lib, tutish vaqtini beradi.


3. $A > 0 \Rightarrow k > \frac{\sigma - \rho}{|z_0|l}$ bo'lsin. U holda (5) tenglama $t^* > 0$ musbat yechimi mavjud va bu yechim tutish vaqti bo'ladi.



(1-chizma)



(2-chizma)



(3-chizma)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Isaacs R. Differential games. John Wiley and Sons, New York, 1965 .
2. Nahin P.J. Chases and Escapes: The Mathematics of Pursuit and Evasion. Princeton University Press, Princeton, 2012 .
3. Azamov A.A., Samatov B.T. The II-Strategy: Analogies and Applications. The Fourth International Conference Game Theory and Management , St. Petersburg, Russia: 2010, p. 33-47.
4. Samatov B.T. The Pursuit- Evasion Problem under Integral-Geometric constraints on Pursuer controls. Automation and Remote Control, Pleiades Publishing, Ltd. New York: 2013, 74(7), p. 1072-1081.